



## COMPARATIVE ANALYSIS OF THE EDUCATION SYSTEMS OF IRAN AND UZBEKISTAN

**Gulobar Tukhtavaliyeva**

*4th-year student, Persian-English group  
Faculty of Oriental Civilization and Philosophy  
Tashkent State University of Oriental Studies  
Tashkent, Uzbekistan*

**N. Khodiyeva**

*Senior Lecturer  
Higher School of Iranian and Afghan Studies, TSUOS  
Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Education, science, primary education, secondary education, White Revolution, Islamic Revolution, literacy corpus.

**Received:** 25.03.26

**Accepted:** 26.03.26

**Published:** 27.03.26

**Abstract:** The development, structure, and historical influences on the education systems of Iran and Uzbekistan are analyzed. The study highlights the stages of Iran's education system, literacy levels, and the connection of education policy with historical processes. It also examines the post-1979 revolution reforms and the Islamization of the education system. Additionally, the changes in Uzbekistan's education system, post-independence reforms, and the state's attention to education are analyzed.

### ERON VA O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMINING QIYOSIY TAHLILI

**Gulobar To'xtavaliyeva**

*4-kurs fors-ingliz guruhi talabasi  
Sharq sivilizatsiyasi va falsafasi fakulteti  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
Toshkent, O'zbekiston*

**N. Xodiyeva**

*TDSHU, "Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi katta o'qituvchisi  
Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit soʻzlar:** Taʼlim, ilm-fan, boshlangʻich taʼlim, oʻrta taʼlim, oq inqilob, islom inqilobi, savodxonlik korpusi.

**Annotatsiya:** Eron va Oʻzbekiston taʼlim tizimining rivojlanishi, tuzilishi hamda tarixiy omillar taʼsiri tahlil qilinadi. Unda Eron taʼlim tizimining bosqichlari, savodxonlik darajasi va taʼlim siyosatining tarixiy jarayonlar bilan bogʻliqligi yoritilgan. Shuningdek, 1979-yilgi inqilobdan keyingi islohotlar va taʼlim tizimining islomlashtirilishi masalalari koʻrib chiqiladi. Matnda Oʻzbekiston taʼlim tizimidagi oʻzgarishlar, mustaqillikdan keyingi islohotlar hamda davlat tomonidan taʼlimga berilayotgan eʼtibor ham tahlil etilgan.

---

## СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СИСТЕМ ОБРАЗОВАНИЯ ИРАНА И УЗБЕКИСТАНА

**Гулобар Тўхтавалиева**

*Студентка 4 курса, персидско-английская группа*

*Факультет восточной цивилизации и философии*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

**Н. Ходиева**

*Старший преподаватель*

*Высшая школа иранистики и афганистики, ТГУВ*

*Ташкент, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Образование, наука, начальное образование, среднее образование, Белая революция, Исламская революция, корпус грамотности.

**Аннотация:** Проанализированы развитие, структура и исторические факторы, влияющие на системы образования Ирана и Узбекистана. Рассматриваются этапы развития системы образования Ирана, уровень грамотности и связь образовательной политики с историческими процессами. Также исследуются реформы после революции 1979 года и исламизация системы образования. В дополнение анализируются изменения в системе образования Узбекистана, реформы после обретения независимости и внимание государства к сфере образования.

**Kirish.** Erondagi taʼlim, 2016-yil holatiga koʻra, 30-60 yosh oraligʻidagi eron aholisining 86% savodli hisoblanadi. Bu koʻrsatkich yosh avlodlar (15 yoshdan 24 yoshgacha) orasida esa gender tafovutlarisiz 97% gacha oshdi. 2007-yilning oxirida Eronda talabalar sonining ishchi kuchiga nisbati 10,2% ni tashkil etib, dunyodagi eng yuqori mutanosiblikga erishgan mamlakatlar qatoriga kirdi . Boshlangʻich maktab 6) دبستان (yoshdan boshlanuvchi 6 yil davomiylikga ega ilk taʼlim qadami. Kichik oʻrta maktab 7) دوره اول دبیرستان (-sinf dan 9-sinf gacha boʻlgan dabirestaning 3 yillik taʼlim jarayonini oʻzida mujassamlashtirgan boshlangʻich oʻrta maktab. Katta oʻrta maktab (دوره دوم دبیرستان)

ixtiyoriy so‘nggi uch yillik bitiruv yili sanalib, ushbu darajada o‘quvchi o‘z maqsad va qiziqishlariga binoan, aniq, gumanitar, texnologik yoki ijodiy yo‘nalishlarda ta‘lim olishni davom ettirishi mumkin. Yuqoridagi har bir ta‘lim dasturi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, tizim yakunida o‘quvchilar o‘rta maktab diplomini qo‘lga kiritadilar. O‘rta ma‘lumot diplomiga ega bo‘lish — nufuzli milliy universitetlar, yuqori ta‘lim darajasiga ega oliygohlar, shuningdek, Eron universitetiga kirish imtihon(کنکور)larida ishtirok etish uchun birinchi darajali talab hisoblanadi. Darhaqiqat Eronda ta‘limga katta e‘tibor berilishi ota-onalar o‘z farzandlarini bir necha xorijiy tillarni o‘rganishi uchun ham katta sarmoya sarflashlarida ko‘rishimiz mumkin. Ularda ta‘lim sifatiga juda katta ahamiyat berishadi. O‘zbekistonda ham maktabga 7 yoshdan qabul bo‘lar edi. Ushbu yildan boshlab 6 yoshdan maktabda bolalar uchun alohida tayyorlov darslari o‘tilishi joriy qilindi. 1-4-sinfgacha o‘rta ta‘lim, 5-9-sinfgacha o‘rta ta‘lim va 10-11-sinflar uchun kasbga yo‘naltirilgan majburiy ta‘lim mavjud. Bakalavr 4yil va magistratura 1 yoki 2 yil ixtiyoriy ravishda o‘qiladi.

“Inson huquqlarini barqarorlashtirish tashabbusi”ning ma‘lumotlariga binoan, mamlakat tomonidan xususiy sof daromad darajasidan kelib chiqqan holda ta‘lim olish huquqi uchun ajratilishi lozim bo‘lgan mablag‘ning atiga 91,0% sarflanayotgani aniqlandi . Agar mamlakat daromad darajasiga e‘tibor qilinsa, davlat hatto 130-180%gacha mablag‘ tikishga qurbi yetadi, biroq, vaholanki, boshlang‘ich ta‘lim uchun 99,2%, o‘rta ta‘lim uchun esa atiga 82,9%lik “e‘tibor” sarflanmoqda . O‘zbekiston o‘z davlat budjeti xarajatlarining sezilarli qismini, taxminan 15-20% atrofida yoki yalpi ichki mahsulotga (YAIM) nisbatan qariyb 5-6% dan ortiqroq mablag‘ni ta‘lim sohasiga yo‘naltiradi. Bu ko‘rsatkich mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish va yosh avlod sifatli ta‘lim olishini ta‘minlashga qaratilgan ustuvor siyosatning bir qismidir . Yuqoridagi sonlarga qarab ikki davlat o‘rtasidagi tafovutlarni ko‘rishimiz mumkin.

Savodxonlik korpusi Muhammad Rizo Pahlaviy hukmronligi Oq inqilob davrida sodir bo‘ldi. Aholining ko‘p qismi savodsiz ekanligiga amin bo‘lgan hukumat “Savodxonlik Korpusi” milliy dasturini o‘zgartirishga urindi. Dastur o‘rta ma‘lumotli yosh yigitlarni “Savodxonlik korpusi”ga ishga qabul qilish, aksariyati 2-sinf ta‘limini ham olmagan 6 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan bolalarni o‘qishga o‘rgatish kabi vazifalarni o‘z ichiga olgan edi. Dasturning oliy maqsadi Eronda savodxonlikni arzon va samarali usulda oshirish bo‘lgan, shuningdek, hukumat bu ish mahoratini ham yuksaltiradi deb ishonch bildirgan. “Savodxonlik korpusi” da 200 000 nafar yigit-qiz ishtirok etib, 2,2 million tengdoshlari va 1 milliondan ortiq katta yoshlilarga saboq berishdi. Ko‘p hollarda, harbiy xizmatni tugatgan ko‘ngillilar keyinchalik ham o‘qituvchi sifatida ishlashni davom ettirdilar.

Dastlab, 1979-yildan keyingi Islom inqilobi ta‘lim sohasidagi islohotlarga katta e‘tibor qaratdi. Siyosatchilar maktab tizimida islomiy qadriyatlar imkon qadar tezroq yo‘lga qo‘yilishini xohlashdi. Biroq, Eron-Iroq urushi va iqtisodiy nochorlik ta‘lim rejalarini orqaga qaytishiga majbur qildi, chunki ayni vaziyatda mamlakat uchun harbiy va xavfsizlik masalalari ustuvor muammo edi. Tarang

vaziyatga qaramasdan davlat ba'zi muhim o'zgarishlar qilishga kuch topdi. Masalan, birinchi navbatda darsliklarni islomlashtirish boshlandi. So'ng, maktablar o'quvchilarning jinsiga qarab ajratildi. Ilm dargohlarida islom qonunlariga rioya qilish majburiy holga aylandi va diniy marosimlar davom ettirildi. Eron jamiyatida asosiy rol erkakka yuklangan bo'lib, patriarxat islom dinining bir qismi sifatida zamonaviy Eronda davlat darajasida qo'llab-quvvatlanadi. Eron hozirda Gender tenglik indeksida 164 mamlakatning ichida 137-o'rinni egallab turibdi. Izoh sifatida kitiishim keraki, O'zbekistonda dini, tili, ijtimoiy kelib chiqishi va jinsidan qat'iy nazar teng ilm olishga haqlidir. Eron islom respublikasi bo'lgandan so'ng ayollar ta'limidagi ba'zi fanlar qisqartirilgani ko'rishimiz mumkin. Erondagi o'g'ir vaziyat O'zbekistonda ham yuz bergan O'zbekiston Sovet davlatiga mustamlaka bo'lganligi uchun bizning eng ziyoli o'qimishlilar qatlamimizni yo'q qilishga doimo harakat qilishgan. Shuning asnosida xalqni savodsiz qilishga qaratilgan 3 marta yozuv islohoti o'tkazilgani ham bejiz emas. Bir avlod tomonidan yozilgan asarlar yoki darslik kitoblarni ikkinchi avlod o'qiyolamsligi, xalqni o'zligini, milliy qadryatini yo'qotishga qaratilgan siyosat edi.

Zamonaviy ta'lim. YUNESKO Statistika Instituti tomonidan Eron aholisining savodxonlik darajasi va 1975-2015 Eronda g'arb uslubidagi birinchi davlat maktablari Hoji-Mirza Hasan Roshdieh tomonidan tashkil etilgan. Amir Kabir XIX asr o'rtalarida birinchi zamonaviy Eron kolleji va ilk bor Pahlaviylar davrida tashkil etilgan Yevropa universitetlaridan namuna qilib olingan birinchi Eron universitetining yuksalishiga katta yordam berdi. Eronda boshlang'ich maktabdan to universitetgacha bo'lgan barcha darajadagi bepul davlat maktablari va xususiy maktablar mavjud. Mamlakatda ta'lim juda markazlashgan. Ta'lim vazirligi ta'limni rejalashtirish, moliyalashtirish, boshqarish, o'quv dasturlari va darsliklarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. O'qituvchilarni tayyorlash, baholash va imtihon qilishni ham vazirlik o'z zimmasiga oladi. Universitetda va bepul davlat maktablarida tahsil olayotgan har bir talaba va o'quvchi, odatda oliygohda ta'lim olish yili bilan barobar bo'lgan bir necha yillik hukumatga xizmat qilish majburiyatini oladi yoki juda past narxda harbiy xizmat haqqini (odatda bir necha yuz dollar) to'laydi, biroq davlat har tomonlama mulohazaga kelib, miqdor uchun qurbi yetmagan tahsil oluvchi islom hukumatiga to'lashga qodir emasligini isbotlasa, summadan butunlay ozod qilinadi. 1970-yil boshlarida maktab o'quv dasturlarini yangilash, zamonaviy darsliklarni joriy etish va samaraliroq o'qituvchilarni tayyorlash orqali ta'lim tizimini takomillashtirishga harakat qilindi.

1979-yilgi inqilob mamlakatda ta'limga bo'lgan e'tiborni davom ettirdi, yangi hukumat bu jarayonda o'zining muhim tamaltoshini qo'ydi. Asosiy, e'tiborga molik o'zgarish ta'lim tizimini islomlashtirish edi. Barcha o'quvchilar jinsi bo'yicha sinflarga bo'lindi. 1980-yil ta'limda islom qadriyatlarini saqlab qolish va doimiy nazorat qilish uchun Madaniy inqilob qo'mitasi tuzildi. Qo'mitaning bir qismi hisoblangan "Darsliklar Markazi" jamoasi (asosan ulamolardan iborat) 1983-yilga kelib islomiy qarashlarni aks ettiruvchi 3000 ta yangi kollej miqyosidagi darsliklarni nashr etdi.

Islomga asoslangan o‘quv materiallari inqilobdan keyin 6 oy ichida boshlang‘ich sinflariga tarqatildi. Eronda inqilobdan keyin tubdan ta‘limda o‘zgarishlar bo‘lgani kabi bizda 1889-yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi , 1991-yil 31-sentabrda, mustaqillikka erishishimiz natijasidan ta‘limda tubdan keng islohotlar qilindi. Ta‘limga va ilm fanga bo‘lgan qiziqish ortib bordi. Qator islohotlar amalga oshirildi. Davlatda ta‘lim ilm fan qachon rivojlanadi, davlat tinch, yurt farovon bo‘lsa.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdumajidov F ., Davlat tili haqida (qonunga sharhlar), T., 1998.
2. Vol.3 no. 3 (2022): Uzbekistan: Language and Culture
3. “Literacy rate, adult total (% of people ages 15 and above) - Iran, Islamic Rep. | Data”. data.worldbank.org. Qaraldi: 2021-yil 26-oktyabr.
4. Human Rights Measurement Initiative – The first global initiative to track the human rights performance of countries. humanrightsmeasurement.org. Qaraldi: 2022-yil 18-mart.
5. “Iran - HRMI Rights Tracker” (en). rightstracker.org. 2022-yil 24-martda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2022-yil 18-mart.
6. Wikipediya.uz.
7. Sog‘liqni saqlash va tibbiy ta‘lim vazirligi — Eron (Wayback Machine saytida 2017-12-04 sanasida
8. Press. “Women Held Power In Burnt City”. 2007-yil 27-sentyabrda asl
9. nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2007-yil 11-aprel
10. Hassan Pour, Faramarz (5 June 2014). “Design of Higher Education Learning Spaces in Iran; From the Qajar Period to the Present Time”. Snapshots International Symposium on Learning Spaces, the University of Melbourne
11. “Education - Iran – system” Nationsencyclopedia.com (2007-yil 15-avgust). Qaraldi: 2012-yil 7-fevral.